

ONG VA TAFAKKUR SHAKLLANISHIDA TASHQI OLAM TA'SIRI

Musratova Zilola Ulug'bekovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

Eshmurodova Feruzabonu Akbar qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Anatotsiya

Ong va tafakkurning kishilar tomonidan tavsiflanishi , inson ongi va tafakkurining shakllanishiga jamiyat ta'siri. Ong va tafakkur kuchi.

Anatotion

Characterization of consciousness and thinking by humans. The influence of society on the formation of human consciousness and thinking. The power of consciousness and thought.

Анатотия:

Характеристика сознания и мышления человека. Влияние общества на формирование сознания и мышления человека. Сила сознания и мысли.

Insonlar ong haqida fikrlar ekan uni dastlabki tushunchalar asosida vujudga kelishini va uning ilohiyligi haqida yakuniy xulosalarga keladi. Olimlar va turli fan soha vakillari ong haqida o'z fikrlarini bildirishadi. Buni izohlashga harakat qiladilar. Bular orasida nisbatan ongga eng yaqin ta'rif berib o'tganlar ham ko'plab uchraydi. Ong – psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tomonlama tushuntirish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lism shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad ya'ni chuqur bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdarlariga ega. Inson borki, olam va odam yaratilganligini tan olar ekan , ong ham yaratganning qudrati, fazlu karami deb hisoblaydi. Ongning mohiyatini izohlashda bir yo'naliш – bu ong moddiy olamning inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtida materialistik yo'naliш nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Vulgar materializm deb nom olgan bu oqim namoyondalarining fikricha, xuddi jigar safroni ishlab chiqorganidek, miya ham ongni ishlab chiqarar ekan. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa degan xulosa paydo bo'ladi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni na ko'rib bo'adi va na ushlab. Demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari , tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topgan. O'z-o'zini anglash , xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir. Hozirgi zamon fani ong materianing uzoq davom etgan evolyutsiyaning natijasida ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo'ib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan olingan so'nggi taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo'lishi uchun bir necha yuz million yillar kerak bo'lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materianing xossasi hisoblanadi. Barcha materianing emas, balki oliy darajadan tashkil topgan materianing, ya'ni inson miyasining mahsulidir.

Lekin ongning bo'lishi uchun miyaning o'zигина bo'lishi yetarli emas. Ong insonni qamrab olgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'langan va shu muhitning ta'sirida faoliyat ko'rsata oladi. Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham tafakkur va fikr darajalarni ham amalga oshira oluvchi texnik mashinalar yaratilgan, lekin ular ongning o'rnnini bosa olmaydi, chunki ong o'ta murakkab bo'lgan obyektiv mavjudlik hisoblanadi.

Ong falsafasi –falsafaning ongning tabiatini va ontologiyasini tadqiq etuvchi, uning tana bilan o'aro aloqasini o'rganuvchi sohasi hisoblanajakdir. Ongning kishi bilmagan g'aroyib xususiyatlari borki, u barchada yashirin holda bo'ladi.

Inson bu ong xossalardan foydalanmoq uchun avvalombor o'zing shaxsiy psixikasini anglamog'I, shunchaki anglamasdan uni mukammal bilmog'I zarur. Falsafada tana-ong muammozi anchagina bahs va munozaralarga sabab bo'lgan muammodir, biroq bu boradagi ba'zi bir kelishmovchiliklar hal etilgan. Bular qatoriga „Murakkab ong muammozi”, maxsus ong holatlari kabi muammolarni keltirish mumkin. Ongning bu sohada tadqiq etiluvchi jihatlari qatoriga ong hodisalari, ong funksiyalari, ong xususiyatlari, onglilik va uning asab tizimi vositachilar, ong ontologiyasi, bilish va fikrlash hodisalarining tabiatini, hamda ong va tana munosabatlari kabilarni keltirish mumkin.

Bizga bevosita ochiladigan psixik voqelik ongning subyektiv olamidir. O'zimizni ruhiy va ongli identifikatsiyadan ozod qilish uchun asrlar kerak bo'lди. Falsafa, psixologiyada va fiziologiyada ularning farqlanishiga olib kelgan yo'llarning xilma xilligi hayratlanarli: Leybnits, Fexner, Freyd, Sechenov va Pavlov nomlarini eslatish kifoya qiladi.

Psixik aks ettirishning turli darajalari g'oyasini o'rnatish hal qiluvchi qadam bo'lgan. Tarixiy, genetik nuqtai nazardan, bu hayvonlarning ongdan oldingi psixikasi mayjudligini tan olishni va odamlarda uning sifat jihatidan yangi shakli – ongning paydo bo'lishini anglatar edi. Ong o'zining bevositaligida subyektga ochiladigan dunyoning rasmidir, unga uning o'zi, uning harakatlari va holatlari kiradi. Tajribasiz odam uchun unda bu subyektiv rasmning mavjudligi, albatta, hech qanday nazariy muammolarni keltirib chiqarmaydi: uning oldida dunyo va dunyoning surati emas, balki dunyo turadi xolos. Ushbu elementar realism zamirida haqiqiy, soddagina bo'lsada, haqiqat yotadi. Yana bir narsa – bu aqliy aks ettirish va ongni aniqlash, bu bizning introspeksiya bizning illyuziyasidan boshqa narsa emas.

Bu ongning cheksiz kengligidan kelib chiqadi. O'zimizga u yoki bu hodisa yuzasida onglimizmi, deb so'rab, biz o'z oldimizga xabardorlik vazifasini va albatta uni deyarli bir zumda hal qilamiz. „Idrok maydoni” va „ong maydoni”ni eksperimental ravishda ajratish uchun taxistoskop texnikasini yaratish zarur edi.

Tafakkur – atrof muhitdagi boqiylikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon. Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror qismidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning bosh miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jamiyatda inson zoti shakllanibdiki uning faoliyati davomida hech birlari o'zlarining onggi va tafakkuri haqida zarra bo'lsa hamki o'ylamagani yo'kdir. Shunday ekan bu borada turli xil qarashlar va farazlar kelib chiqishi tabiyidir. Tafakkur bo'lishi uchun avvalo tushuncha -> hukm -> xulosa zarur hisoblanadi. Albatta jamiyatda fazil kishilar ko'p uchratiladi. Zeroiki, shaxs shakllanishi uchun tashqi muhit omillari ularga ikki xilda ta'sir o'tkazadi. Bular: ijobiy va salbiy ta'sirlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Umumiy psixologiya” Haydarov, E.G’oziyev, hamda sayt: <https://uz.m.wikipedia.org>
2. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.
3. Нарметова, Ю. К., & Махкамова, Н. М. Қ. (2022). ҲОМИЛАДОР АЁЛЛАРДА СОМАТИК ВА ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРИНИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 346-350.
4. Нарметова, Ю. (2014). Тиббиёт психологиясида психосоматик касалликлар муаммоси. ЎзМУ хабарлари.
5. Нарметова, Ю. (2015). Психосоматик bemорларда эмоционал холат бузилишлари ва уларга психологик ёрдам кўрсатишнинг ўзига хослиги. ЎзМУ хабарлари.
6. Нарметова, Ю. (2014). Депрессия-психосоматик касалликларнинг предиктори сифатида. Scienceweb academic papers collection.
7. Нарметова, Ю. (2021). Алекситимия-психосоматик касалликлар омили сифатида.
8. Нарметова, Ю. (2015). Социально-психологический механизм организации психологических услуг в медицинских учреждениях (на примере больных с онкологическими заболеваниями). Школа будущего.
9. Нарметова, Ю. К., & ХУСУСИЯТЛАРИ, П. Б. П. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(2), 21-28.
10. Мелибаева, Р. Н. (2012). Формирование самостоятельного и творческого мышления студентов в процессе поиска решения проблемной ситуации. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (12), 349-352.
11. Ulugbekovna, M. Z. (2022). Form and Methods of Forming Communicative Competence in Youth. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 71-74.
12. Ulug’bekovna, M. Z. (2022). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIKNI SHAKLLANTIRISH ASPEKTLARI. O’ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 215-218.
13. Ахмедова, М. Т., & Мусратова, З. У. (2021). Олий таълим муассасаларида устоз-шогирд муносабатларининг стратегик қоидалари ва вазифалари. In interdisciplinary conference of young scholars in social sciences (pp. 326-329).
14. Baxtiyarovna, S. D. (2022). TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI. Scientific Impulse, 1(3), 444-448.
15. Baxtiyarovna, S. D. (2022). BEMORDAGI NEVROTIK HOLATLARDA PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING ZARURATI. Scientific Impulse, 1(3), 373-376.